XORAZM VILOYATI XIVA TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 19 - aprel 108-12-176-Q/23 Xiva tumani hokimligi

Xalq deputatlari Xiva tuman Kengashining sakson ikkinchi sessiyasini chaqirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 17-moddasiga asosan

Qaror qilaman:

1. Xalq deputatlari Xiva tuman Kengashining sakson ikkinchi sessiyasi 2023-yil 24-aprel kuni soat 15:00 ga chaqirilsin.

2. Xalq deputatlari Xiva tuman Kengashi sessiyasining kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

2.1 Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risida.

2.2 Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi tomonidan belgilangan kvota asosida davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan texnologik operatsiyalarga muhtoj bo‘lgan Xiva tumanida yashovchi bemorlar ro‘yxatlarini tasdiqlash to‘g‘risida.

2.3 Xiva tumani “Temir daftar” ro‘yxatidan ba‘zi oilalarni chiqarish hamda yangidan oilalarni kiritish to‘g‘risida.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari B.Xudayberganov hamda tegishli tashkilot rahbarlari, xalq deputatlari tuman Kengashining sakson ikkinchi sessiyasi kun tartibidagi masalani asosli va sifatli qilib tayyorlasin hamda Kengash kotibiyatiga 2023-yil 22-aprel kuni soat 18:00 ga qadar taqdim etsin.

4. Sessiyaga tuman hokimining o‘rinbosarlari hamda kun tartibidagi

masalalarga taalluqli tuman tashkilotlari rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari taklif etilsin.

5. Ushbu qaror Xiva tumani hokimligining rasmiy veb sayti va ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinsin.

Tuman hokimi v.b. **Matrasulov X. R.**